

NEW UZBEKISTAN'S GENDER STRATEGY: AN ANALYSIS OF LEGAL AND INSTITUTIONAL REFORMS

Dauletbaeva Nurjayna Alisherovna

Student, Karakalpak State University

E-mail: nurjaynadauletbaeva@gmail.com

Abstract

Today, gender equality is one of the most discussed and socially and legally significant topical issues on a global scale. This article examines the general essence, theoretical foundations of the concept of gender equality and the history of its origin. The article also analyzes the current state of ensuring gender equality in Uzbekistan, legal and institutional reforms in the legislative system, as well as the target indicators of the strategy target until 2030. At the end of the article, practical proposals and recommendations aimed at further development of the field are put forward.

Keywords

Gender equality, women, men, legal equality, gender strategy, non-discrimination, social opportunities.

YANGI O‘ZBEKISTONNING GENDER STRATEGIYASI: HUQUQIY- INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR TAHLILI

Dauletbaeva Nurjayna Alisherovna

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

nurjaynadauletbaeva@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda gender tenglik global miqyosda eng ko‘p muhokama qilinadigan va ijtimoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada gender tenglik tushunchasining umumiy mohiyati, nazariy asoslari va uning vujudga kelish tarixi tadqiq qilingan. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlash borasidagi hozirgi holat, qonunchilik

tizimidagi huquqiy-institutsional islohotlar hamda 2030-yilga qadar mo'ljallangan strategiyaning maqsadli ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Maqola yakunida sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. Gender tenglik, xotin-qizlar, erkaklar, huquqiy tenglik, gender strategiyasi, kamsitishga yo'l qo'yмасlik, ijtimoiy imkoniyatlar.

Аннотация. На сегодняшний день гендерное равенство является одной из самых обсуждаемых и социально-правовых значимых актуальных тем в глобальном масштабе. В данной статье исследуются общая суть, теоретические основы понятия гендерного равенства и история его возникновения. Также в статье проанализированы текущее состояние обеспечения гендерного равенства в Узбекистане, правовые и институциональные реформы в законодательной системе, а также целевые показатели стратегии, рассчитанной до 2030 года. В заключении статьи выдвинуты практические предложения и рекомендации, направленные на дальнейшее развитие данной сферы.

Ключевые слова. Гендерное равенство, женщины, мужчины, правовое равенство, гендерная стратегия, недопущение дискриминации, социальные возможности.

Gender tengligi yoki jinslar mutanosibligi zamonaviy demokratik jamiyatning poydevori hamda inson huquqlarining oliy mezonini hisoblanib, oila va davlat hayotining barcha strategik jabhalarida erkaklar va ayollarning teng huquqlari, majburiyatlari hamda ijtimoiy imkoniyatlarini kafolatlovchi fundamental huquqiy institutdir. Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu fenomen an'anaviy patriarxal tizimdan progressiv ijtimoiy-jinsiy munosabatlar bosqichiga o'tishni ifodalaydi. Gender tengligi tamoyilining asosiy maqsadi insonning shaxs sifatida rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy-madaniy to'siqlarni yo'q qilish hamda hayotning barcha

jabhalarida har ikki jins vakillarining o'z salohiyatini to'laqonli namoyon etishi uchun teng sharoitlar yaratishdan iborat.

Xalqaro miqyosda ushbu masalaga ilk bor o'tgan asrning o'rtalarida jiddiy va tizimli e'tibor qaratila boshlandi. Jumladan, 1948-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ayollar va erkaklar tengligi aniq belgilab qo'yildi. Keyinchalik, 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 3-moddasida mazkur paktga ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu paktga ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishni ta'minlash majburiyatini oladi deya qat'iy qayd etildi.

Tarixiy jarayonlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy huquqlari uchun kurashi xalqaro miqyosda uzoq va murakkab davom etganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida 1920-yilda AQSH Konstitutsiyasiga ayollarga saylov huquqini taqdim etuvchi 19-tuzatish kiritildi. Ushbu tarixiy voqea munosabati bilan AQSHda har yili 26-avgust Ayollar tengligi kuni sifatida keng nishonlanadi. Mazkur sana ilk bor 1971-yilda bayram qilingan bo'lib, 1973-yilda AQSH Kongressi tomonidan rasman tasdiqlangan. Ayollarning saylov huquqi uchun kurashi ularning jamiyat hayotidagi to'laqonli ishtirokini ta'minlashdagi birinchi ulkan g'alaba bo'ldi. Bugungi kunda zamonaviy demokratik jamiyatlarda xotin-qizlar nafaqat ijtimoiy sohalarda, balki davlat boshqaruvi, diplomatiya va yirik biznesda ham yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z faoliyatining dastlabki davridanoq xotin-qizlar va oila manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratdi.

Davlat rahbari 2020-yil 23-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida hamda 2021-yil 22-fevralda BMT Inson huquqlari kengashining 46-sessiyasida soʻzlagan nutqlarida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan islohotlar qatʼiy davom ettirilishini xalqaro hamjamiyat oldida taʼkidladi. Oʻtkazilgan tizimli islohotlar natijasida Oʻzbekiston parlamentida ayol deputatlar soni sezilarli darajada oshdi va milliy parlamentimiz bu koʻrsatkich boʻyicha dunyo miqyosida yuqori oʻrinlardan birini egalladi.

Bugungi kunda xotin-qizlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadida tegishli institutsional tuzilmalar tashkil etilgan. Oliy Majlis Senati tarkibida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qoʻmitasi faoliyat yuritmoqda. Ushbu qoʻmita milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda kamsitishning har qanday shakliga barham berish choralari koʻrmoqda. Respublikada Gender tenglikni taʼminlash masalalari boʻyicha komissiya tashkil etilgan boʻlib, unga Senat Raisi rahbarlik qilib kelmoqda.

Xalqaro reytinglarda ham ijobiy siljishlar yaqqol kuzatilmoqda. Oʻzbekiston Gender tengsizligi indeksida tahlillarga koʻra yuqori koʻrsatkichlarni qayd etib, Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi pozitsiyalarni egallashga erishdi. 2019-yil 2-sentabrda Oʻzbekiston Respublikasining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisidagi OʻRQ-562-sonli Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning asosiy prinsiplari qonuniylik, demokratizm, jins boʻyicha kamsitishga yoʻl qoʻymaslik hamda ochiqlikdan iborat. Qonunga koʻra, agarda shaxs bevosita yoki bilvosita jinsiy kamsitishga uchrasa, davlat organlari yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega va eng muhimi, bunda jabrlanuvchidan hech qanday davlat boji undirilmaydi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiya Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, milliy qonunlar va BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, uning pirovard maqsadi barcha sohalarda xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta’minlashdir.

Xulosa va Tavsiyalar

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash oilalar barqarorligi va intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalashning bosh poydevoridir. Mamlakatimizda gender tengsizlikka to‘liq barham berish va xotin-qizlar imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun quyidagi amaliy choralarni amalga oshirish taklif etiladi.

Birinchidan, iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash doirasida chekka hududlardagi ayollarni barqaror va yuqori daromadli ish o‘rinlari bilan ta’minlash, ayollar tadbirkorligini va startap loyihalarini subsidiyalash ko‘lamini yanada kengaytirish lozim.

Ikkinchidan, davlat boshqaruvidagi ulushni oshirish maqsadida ijro hokimiyati organlarida va qaror qabul qilish darajasidagi yuqori rahbarlik lavozimlarida ayollar uchun tavsiyaviy kvotalarni tizimli oshirib borish va kadrlar zaxirasini shakllantirish zarur.

Uchinchidan, ijtimoiy stereotiplarga barham berish uchun jamiyat ongida ayol kishi nafaqat oila bekasi, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining faol, yetakchi subyekti ekanligi haqidagi progressiv qarashlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ib qilish maqsadga muvofiqdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi Qonuni, 02.09.2019-y., O'RQ-562-son, Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi Lex.uz.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948, Xalqaro shartnomalar to'plami.
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt 1966, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari byulleteni.
4. O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishishning 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan strategiyasi, Oliy Majlis Senatining Qarori.
5. Axrorova S.A. Mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning ishtiroki, Oriens ilmiy-amaliy jurnal, 2021, 3-son, 45-51-betlar.
6. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish, Ilmiy maqolalar to'plami, Toshkent, Adolat, 2007, 300-bet.